
“YOSH QUTQARUVCHI -2024” MUSOBAQASINING TUMAN BOSQICHI BO‘LIB O‘TDI

Toshloq tumani Kasb-hunar maktablari va Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi umumta’lim maktablari o‘rtasida “Yosh qutqaruvchi” ko‘ngillilar klublari musobaqasining tuman bosqichi bo‘lib o‘tdi

Qiziqarli va murosasiz bahslarda hududlar kesimida 6 ta jamoaning 48 nafardan ziyod o‘quvchi-yoshlari musobaqa nizomiga ko‘ra 4 ta shart asosida sinovdan o‘tdilar.

Musobaqaning yakuniy natijalariga ko‘ra, 32-umumiy o‘rta ta’lim maktabining “Qutqaruvchi” jamoasi 3-o‘rinni, 16-umumiy o‘rta ta’lim maktabining “Yangi hayot” jamoasi 2-o‘rinni va 5-umumiy o‘rta ta’lim maktabining “Qalqon” jamoasi 1-o‘rinni egallab, viloyat bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi. Shuningdek Kasb-hunar maktablari o‘rtasida o‘tkazilgan musobaqada 2-sonli kasb-hunar maktabi g‘olib deb topilib, viloyat bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi. G‘olib bo‘lgan jamoalarga faxriy yorliq hamda esdalik sovg‘alari topshirildi.

2024-03-06 09:36:12